

LOTIN TILIDA FE'LLARNING IFODALANISHI VA RETSEPTDA
ISHLATILISHI

SamDTU Farmatsiya fakulteti 1-kurs talabasi

Mirzamaxmudova Dinora Zafar qizi

Ilmiy rahbar:

SamDTU Tillar kafedrası stajyor assistenti

Xamdamova Muqaddas Xamidovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada lotin tilida fe'llarning grammatik ifodalanishi hamda ularning tibbiy retseptlarda qo'llanilishi yoritilgan. Lotin tilining tibbiyot va farmatsiya sohasidagi ahamiyati, retsept yozish jarayonida ishlatiladigan asosiy fe'llar va ularning ma'nolari tahlil qilinadi. Shuningdek, retsept yozishda buyruq maylidagi fe'llarning qo'llanilishi va ularning dorilarni tayyorlash jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Ayiqsa, farmatsevtik terminologiyada fe'llarning standart qisqartmalari va ularning shifokor hamda farmatsevt o'rtasidagi professional muloqotdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Lotin tili, fe'l, tibbiy terminologiya, buyruq mayli (imperativus), dori shakillari, retsept, farmatsevtik terminologiya, tibbiyot tili.

KIRISH

Lotin tili qadimiy tillardan biri bo'lib, hozirgi kunda asosan tibbiyot, farmatsiya va biologiya sohalarida ilmiy til sifatida qo'llaniladi. Lotin tilini o'rganish juda mashaqqatli va kuchli idrok talab qiladi. Lotin tili, ma'lum grammatik fragmentlarni ya'ni ot, sifat, fe'l va ularning grammatik kategoriyalarini o'rganish hamda ularni amalda qo'llay olish bilim va ko'nikmalarini talab etadi. Ayniqsa tibbiy retseptlar yozishda lotin tilidan foydalanish xalqaro standart hisoblanadi. Retseptlarda fe'llar muhim o'rin tutadi, chunki ular dori tayyorlash, aralashtirish yoki qo'llash usullarini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism: Lotin tilida fe'llarning grammatik ifodalanishi. Shaxs va predmetning ish-harakati yoki holatini ifodalovchi so'zlar turkumi fe'l deb ataladi. Lotin tilida 6 ta zamonga bo'linib, tibbiyotda faqat hozirgi zamon- praesens qo'llaniladi.

Lotin tilida fe'llar to'rt turda tuslanadi.

1. "-are" qo'shimchasi bilan tugallanadi; dare-bermoq.
2. "-ere" (-cho'ziq) qo'shimchasi bilan tugallanadi; miscere-aralashtirmoq.
3. "-ere" (~qisqa) qo'shimchasi bilan tugallanadi; solve're-eritmoq.
4. "-ire" qo'shimchasi bilan tugallanadi; audire-eritmoq.

Fe'llarning lug'at shakli

Tuslanish	Aniqlik mayli hozirgi zamon I shaxs birlik soni (praesens indicativi activi)	Aniqlik mayli o'gan zamon I shaxs birlik soni(perfectum indicative activi)	Fe'ning shxssiz shakli (Supinum)	Fe'ning hozirgi zamon noaniq shakli (infinitivus praesentis activi)
1	Curo davolayapman	Curavi davoladim	Curatum davolash	Curare davolamoq
2	Misceo aralashtirayapman	miscui aralashtirdi m	mixtum aralashtirish	miscere aralashtirmoq
3	Solvo eritayapman	Solvi ertdim	Solutum eritish	Solvere eshitmoq
4	Nutrio ovqatlantirayapman	Nutrivi ovqatlantirdim	Nutritum ovqatlantirish	Nutrire ovqatlantirmoq

Tibbiyot o'quv yurtlarida faqat fe'llarning hozirgi zamonda tuslanishi o'qilar ekan, studentlarga fe'llarni quyidagicha yozish va faqat uchta shaklini o'rganish tavsiya etiladi :

Curo,atum, are- davolamoq

Misceo,xtum, ere-aralashtirmoq

Solvo,solutum,ere-eritmoq

Nutrio,itum,ire-ovqatlantirmoq

Fe'llarning buyruq mayli birlik soni(Imperativus praesentis singularis)

Buyruq mayli buyurish,so'rash,iltimos kabi ma'nolarni ifodalab odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi.Buyruq mayli birlik sonini hosil qilish uchun fe'ning noaniq shaklidan barcha turlarda -re qo'shimchasini olib tashlash kerak.

1.dare-bermoq da-ber

2.miscere-aralashtirmoq misce-aralashtir

3.solve-eritmoq solve-erit

4.audire-eshitmoq audi-eshit

Fe'ning buyruq mayl inkor shakli (Imperativus praesentis)

Fe'ning buyruq mayli inkor shakli I shaxs birlik sonidan nolo -tilamayman,II shaxs birlik sonidan noli -tilamaysan,II shaxs ko'plik sonidan nolite-tilamaysiz so'zlaridan so'ng asosiy fe'ning noaniq shakli yozilib hosil qilinadi.

Nolo sanare -davolamaylik

Noli sanare-davolama

Nolite sanare-davolamang

Retseptda fe'llarning qo'llanilishi. Tibbiy retseptlar aniq va qisqa yozilishi kerak. Shuning uchun lotin tilidagi fe'llar ko'pincha buyruq shaklida ishlatiladi. Retseptning asosiy qismida dorining tarkibi, miqdori va tayyorlash usuli ko'rsatiladi.

Retseptda eng ko'p ishlatiladigan fe'llar; **Recipe (Rp)**-ol, **Misce**-aralashtir, **Da**-ber, **Signa (S)**-belgilab yoz kabilar kiradi.

Retseptga misol

Rp: Infusi Chamomillae 200 ml

Misce.

Da.

Signa: Kuniga 2 mahal ichilsin.

Bu retsept **Misce** fe’li dori tarkibini aralashtirishni bildiradi, **Da** esa dorini bemorga berishni anglatadi.

Retsept yozishda lotin tilining ahamiyati. Lotin tili xalqaro ilmiy til bo’lgani uchun turli mamlakat shifokorlari va farmatsevtlari retseptlarni bir xil tushunishlari mumkin. Bu esa dori vositalarini to’g’ri tayyorlash va qo’llashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Lotin tili fe’llarini to’g’ri qo’llash dori vositalarini tayyorlashda xatoliklarning oldini oladi. Zamonaviy farmatsevtikada ko’p so’zlar qisqartirilsa-da, ularning to’liq grammatik shaklini bilish mutaxassisning professionallik darajasini belgilaydi. Fe’llar retseptning “dinamik” qismi bo’lib, shifokor irodasini ijroga yo’naltiradi. Shu sababli farmatsiya va tibbiyot sohasida lotin tilini bilish mutaxassislar uchun zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. M.N.Hakimova, “Lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari”.
2. Mardonovich M.Z.(2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta’siri. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 132-136
3. L.U.Xo’jayeva “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent 2005.
11. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. *Science and Education*, 3(12), 897-902.
4. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III СКЛОНЕНИЯ ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ЛАТИНСКОМ ЯЗЫКЕ. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 22(5), 37-42.
5. Mallaevna, N. S., & Khalid, A. (2023, November). Topic chemical terminology of salts. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 5, pp. 226-229).
6. Mallaevna, N. S. (2024). THE SOCIAL AND CULTURAL IMPORTANCE OF THE LATIN LANGUAGE AND ITS PRESENT AND HISTORICAL LANDSCAPE. *Central Asian Journal of Academic Research*, 2(5), 51-55.
7. Alisherovna, A. U. (2023). Discourse in modern linguistics. *Journal of new century innovations*, 26(5), 123-128.
8. Mardanovich, M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta’siri. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 132-136.
9. Aminovna, Y. D., Ubaydullayevich, F. F., & Tog’aymurodovich, R. J. (2020). The development of speech activity in students. *International Journal on Integrated Education*, 2(4), 95-97.
10. Fayzullaev, F. U. "The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language." *JournalNX*, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 68-70.
11. Beknazarova, M. K. (2022). THE MOST IMPORTANT CRITERIA FOR EVALUATING STUDENT KNOWLEDGE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 35-37.

12. Beknazarova, M. K. (2022). Lotin tilini o'qitish jarayonida klinik kafedrlar bilan integratsiyalashtirilgan mashg'ulotlarning maqsadli yo'naltirilishidagi natijalar. Science and Education, 3(11), 653-656.